

RUS PAREMIOLOGIYASIDA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TADQIQ ETILISHI

Davirova Vazira Quvondiq qizi

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21426095>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarining rus sharqshunosligida o‘rganilish tarixi va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Ilk paremiologik to‘plamlarning shakllanishi, folklor namunalari yig‘ishdagi metodologik kamchiliklarning tanqidiy bahosi, tarjima va mavzulashtirish tamoyillari tizimli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek folklori, maqol, paremiologiya, rus sharqshunosligi, qiyosiy tahlil, tarjima muammolari, mavzulashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируются история и научно-теоретические основы исследования узбекских народных пословиц в контексте русского востоковедения. Систематически освещаются формирование первых паремиологических сборников, критическая оценка методологических недостатков при сборе фольклора, а также принципы перевода и тематизации.

Ключевые слова: узбекский фольклор, пословица, паремиология, русское востоковедение, сравнительный анализ, проблемы перевода, тематизация.

Abstract. This article analyzes the history and scientific-theoretical foundations of studying Uzbek folk proverbs within the context of Russian Oriental studies. The formation of early paremiological collections, the critical evaluation of methodological shortcomings in folklore fieldwork, and the principles of translation and categorization are systematically examined.

Keywords: Uzbek folklore, proverb, paremiology, Russian Oriental studies, comparative analysis, translation problems, categorization.

Xalq maqol va matallari – uzoq tarix sahifalaridan yetib kelayotgan xalq o‘gitlari, u xalq badiiy dunyoqarashining aksi, botiniy dunyosining oynasi, o‘tmishi, madaniyati va turmushi haqidagi falsafiy xulosalarini o‘zida to‘la jamlagan ixcham shaklga ega ibrat. Maqol va matallar mazmunida nafaqat xalq kechmishni jam etadi, balki ijtimoiy hayotning buguni va ertasi uchun poydevor dastur bo‘la oladi desak yanglish bo‘lmaydi. Shu bois o‘z o‘tmishi, qadr-qimmat, badiiy tafakkurining taraqqiyoti uchun qayg‘urgan xalq maqollarni yashash qonunlari sifatida hamisha nutqida qo‘llaydi va maqollarda aks etgan o‘gitga amal qilish bilan birga to‘plash, o‘rganish va ommalashtirishga intiladi.

“Xalq maqol va matallari shunchaki shakllanmaydi. Xalqqa yaqin va ko‘ngliga ma‘qul kelgan ibratomuz xulosaga ega jumla yoki siqiy nutq shakli ma‘lum zamon va makonda omma tafakkurida sayqallanib maqolga aylanadi. Ular muntazam ravishda takomillashib ijtimoiy hayot bilan yonma-yon yashaydi va vaqt o‘tgan sari rivojlanib, takomillashib, kengayib, variantlashib boraveradi. Shu bilan birga, maqol va matallarning mazmuni joriy zamon va makonga moslashib, mavjud zamon hayoti va falsafasiga xizmat qiladi”[6.49], - deydi folklorshunos olim Y.Rahmatov. Olimning mazkur fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, maqol va matallar doimiy tarzda barcha zamonlar uchun mantiqan yangi va mazmunan yosh hisoblanadi. Chunki maqol barcha zamon kishilarining tarbiyasida bir xil ahamiyat kasb etadi. Odatda maqol va matallar shakl va mazmun jihatidan makon va zamonga taalluqlashadi, ularning hajmi ba‘zan kengayib borishi, yoki bilaks hajmning ixchamlashib borishi ham tabiiy holdir. Turkman paremiologi professor B.M.Karriyev bu haqda

shunday deb yozadi: “Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qo‘llanishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boradi”[3.162].

O‘zbek xalq maqollarini yaqin o‘tmishda va bugungi kunda qo‘shni davlatlar hamda xorijda o‘rganilishi izchil davom etib kelmoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshida o‘zbek xalq ertaklari, maqollari, dostonlari va og‘zaki teatri namunalarini to‘plash va nashr etishda rus sharqshunoslari N.P.Ostroumov[4.184], A.N.Samoylovichlar faol ishtirok etganlar. Rus missioneri N.P.Ostroumov tomonidan o‘zbek folklori alohida o‘rganildi. Ayniqsa, olim o‘zbek xalq maqollariga alohida e‘tibor bilan qaradi va mingdan ortiq o‘zbek maqollarini turli usulda to‘plab ularni rus tiliga tarjima qildi. Hatto ularning tadqiqiga bag‘ishlangan salmoqli maqola ham yaratdi. Mazkur maqola va olim tomonidan yig‘ilgan maqollar 1895 yilda “Сарты. Этнографические материалы”[4.184] nomi ostida Toshkent litografiyasida chop etilgan.

N.P.Ostroumovning mazkur faoliyati to‘g‘risida o‘zbek folklorshunosligining asoschisi, professor H.Zarifov shunday deydi: “Shuni qayd qilish kerakki, N.P.Ostroumov va unga o‘xshash shaxslar tomonidan to‘plangan materiallar ba’zi bir ilmiy qiziqishlar tug‘dirsa ham, bizning folkloristikamiz nuqtai nazardan qaraganda nisbatan juda kam qimmatga ega, chunki bu materiallar asosan ekspluatator sinflar o‘rtasidan to‘plangan va bevosita aytuvchidan emas, balki ikkinchi darajali shaxslardan yozib olingan”[2.220]. Biroq mazkur manba o‘zbek xalq maqollarining xorijda o‘rganilishining dastlabkisi va yirik tadqiqi sifatida ahamiyatga ega. Shu ma’noda mazkur tadqiqotni bugungi kun o‘zbek folklorshunosligi aspektida o‘rganish va unda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tanqidiy nuqtai nazardan baholash zarur.

Rus sharqshunos olimi N.P.Ostroumov o‘zbek xalq maqollarini o‘rganar va taftish qilar ekan, o‘z oldiga quyidagicha maqsad va vazifalar qo‘yadi:

1. avvalo o‘zbek xalq maqollarini jamlash (bunda qo‘l ostidagi mahalliy ziyolilardan foydalangan), ya’ni mahalliy aholi nutqidan yozib olish va chop ettirish;
2. o‘zbek xalqining xarakteri, ruhiyati va dunyoqarashini o‘rganish uchun o‘zbek maqollarini rus tiliga tarjima qilish va rus matbuotida e‘lon qilish;
3. o‘zbek va rus maqollarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o‘rganish;
4. o‘zbek xalq maqollarining janriy tabiati, o‘ziga xos xususiyatlari va kelib chiqish tarixini tadqiq etish;
5. ilmiy izlanish jarayonida o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va yashash tarzini bilib olish.

N.P.Ostroumov, avvalo, xalq maqollarini yig‘ish va to‘plashdan boshlaydi. Biroq bu ishni folklorshunoslik talablari asosida bajarmaydi. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va yozib olishning o‘z talab va qoidalari mavjud:

- to‘plovchi xalq og‘zaki ijodi haqida yetarli bilimga ega bo‘lmog‘i lozim;
- to‘plovchi folklor namunasini xalq orasidan jonli ijro jarayonida yozib olishi lozim;
- yozib olingan namuna ijrochisi haqida to‘liq ma’lumot berilishi lozim;
- yozib olingan namunaning manzili va sanasi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi shart;
- yozib oluvchi haqida ma’lumot berilishi kerak.

N.P.Ostroumov to‘plagan va nashr qildirgan xalq maqollarida bu talablarga amal qilmagan. Chunki olim folklorshunoslik ilmini uncha yaxshi bilmagan, bundan tashqari rus ilmida ham folklor nazariyasi endi shakllanib kelayotgan davr edi. U o‘zbek xalq maqollarini to‘plashda mahalliy ziyoli kishilardan, o‘zi tashkil etgan rus-tuzem maktablari muallimlaridan va o‘quvchilaridan foydalangan. Shu sabab u nashrda to‘plangan maqollarning manzili ham, aytuvchisi ham noma‘lum.

N.Ostroumov to‘plagan folklor materiallarini “Сарты. Этнографические материалы” nomi ostida paydar-pay nashr ettira borgan. Ushbu jamlanmaning dastlabki jildida to‘plangan xalq ijodiga mansub materiallar to‘laligicha berilgan, jumladan, o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Buning uchun N. P. Ostroumov quyidagi amallarni bajargan:

1. xalq maqollaridan mingtasini rus tiliga tarjima qilib uning o‘zbek va rus tilidagi variantini yonma-yon kiritgan. Bu o‘zbek va rus maqollarini o‘zaro qiyoslab o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari tarjima qilinayotgan maqol to‘g‘ri tarjima qilingan yoki noto‘g‘ri tarjima qilinganini tekshirishga yordam beradi. O‘zbek maqollarining tarjima jarayonidagi o‘zgarishlarini bilishga ko‘maklashadi;

2. olim to‘plagan maqollarni o‘sha davr an‘anasiga ko‘ra mavzularga bo‘ladi va 21 mavzu ostida e‘lon qilgan. Aslida xalq maqollarini mavzulashtirib nashr ettirish ishini rus olimi V.Dal boshlab bergan uning ikki jildli “Пословицы русского народа” to‘plamida maqollar 174 ta mavzu ostida berilgan. Bu xalqning e‘tiqodi, patriarxat davridan buyon amal qilib kelinadigan udumlari va rus xalqi dunyoqarashiga asoslangan. Shunga ko‘ra, V. Dal maqollar to‘plamini “Бог – вера” (Xudo – e‘tiqod) mavzusida boshlab, dastlab e‘tiqod, din, olamning yaratilishi haqidagi maqollarni keltirgan. N. Ostroumov ham garchand o‘zbek maqollarini rus tiliga tarjima qilib nashr ettirayotgan bo‘lsa ham, Dal ko‘rsatgan yo‘ldan borib maqollarning birinchi qismini “Бог. Судьба. Ислам” (“Xudo. Taqdir. Islom”) deb nomlaydi[1.184]. Bu o‘quvchilarga xalq maqollarini o‘rganish va topishga yaqindan yordam beradi;

3. olim ba‘zi tushinilishi qiyin bo‘lgan maqollarning izohini beradi. Bu o‘sha davr uchun xos bo‘lgan maqollar mohiyatini anglashga va tushinishga ko‘maklashadi.

Shundan so‘ng olim o‘zbek xalq maqollari haqidagi o‘zining ilmiy qarashlari aks etgan tadqiqotini bayon etadi. Mazkur maqola 41 sahifadan iborat bo‘lib, o‘zbek xalq maqollarining genezisi, janriy tabiati va o‘ziga xosligi haqidagi dastlabki kichik tadqiqot sanaladi. Tadqiqot rus missionerlik g‘oyasi asosida yaratilgan bo‘lsada o‘zbek parimeologiyasining shakllanishida alohida hodisa sanaladi. Bu haqda Y.Rahmatov shunday deydi: “N. Ostroumov mingta maqolni rus tiliga o‘girib, 21 mavzu ostida bergan. Shundan so‘ng o‘zbek xalq maqollari haqidagi ilmiy va amaliy qarashlarini “Несколько замечаний относительно пословиц и поговорок сартов” - “Sartlarning maqol, matallari haqida ba‘zi mulohazalar” maqolasida bayon etadi. Maqola o‘zbek xalq maqollarining o‘ziga xosligi, ularning shakllanish omillari, shakli va badiiyati haqidagi rus olimining ilk ilmiy qarashlari bayon etilgani bilan g‘oyatda qimmatlidir”[6.26]. To‘g‘ri, maqolada ba‘zi biryoqlamaliklar, mafkura va istilochilik pafosi ufurib turadi, shunga qaramay olim ilk bor o‘zbek maqollarini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganishga va nazariy xulosalar chiqarishga harakat qiladi.

N.P.Ostroumovning “Несколько замечаний относительно пословиц и поговорок сартов” nomli maqolasi o‘zbek xalq maqollari va matallarini ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida e‘tiborga molikdir. Mazkur tadqiqotda muallif o‘sha davr rus folklorshunosligi va paremiologiyasi yutuqlariga tayangan holda ish olib boradi.

Xususan, xalq maqollarini yig'ish, tasniflash va nashrga tayyorlash masalalarida rus lug'atshunosi hamda paremiologi V.Dalning ilmiy-metodik qarashlariga murojaat qiladi. Shuningdek, maqol va matallarning janriy xususiyatlarini aniqlash, ularni o'zaro farqlash hamda qiyosiy tahlil qilish jarayonida F.Buslaev va A.Potebnyaning nazariy qarashlaridan samarali foydalanadi.

Rus paremiologi G.L.Permyakov sharq xalq maqollarini rus xalq maqollari qiyosida tadqiq qildi va mazkur tadqiqot o'laroq olim o'zining “Mataldan ertakkacha” (“От поговорки до сказки”) nomli risolasini e'lon qildi[5.240]. Mazkur risolaning birinchi qismida rus maqol va matallari haqida to'liq ma'lumot berilgan, risolaning ikkinchi qismida rus maqollari va sharq xalq maqollarining tuzilishi va mazmunidagi o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslab o'rganiladi. Jumladan, o'zbek xalq maqollariga ham murojaat qilingan. Bunda olim sharq xalqlariga xos bo'lgan xususiyatlarning maqollarda aks etishi va sharq xalqlari dunyoqarashidagi mushtaraklikni qiyosan o'rganishga harakat qiladi.

Глина не станет фарфором, чужой человек - братом (Sopol chinni bo'lmas, begona ini)[5.138], Полюбишь работу – и она тебя полюбит (Mehnatni sevsang, mehnat ham seni sevar)[5.140], Разлучившийся с другом плачет семь лет, расставшийся с родиной плачет всю жизнь. (Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar)[5.147].

1950-yillardan e'tiboran o'zbek xalq maqollari rus tiliga tarjima qilinib, to'plam sifatida chop etila boshlandi. Shunday to'plamlardan biri “Узбекские пословицы и поговорки” (“O'zbek xalq maqollari”) to'plami 1959-yil Toshkentda, O'zbekiston SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan. Mazkur to'plam taniqli rus sharqshunosi, turkolog olim va filologiya fanlari doktori Irina Vasilyevna Borolina tomonidan amalga oshirildi. I.V.Borolina Moskva davlat universiteti Osiyo va Afrika mamlakatlari institutida turkiy xalqlar folklori, adabiyoti va teatri bo'yicha yirik mutaxassis lavozimida ishlagan. O'zbek tilini mukammal o'rgangan va o'zbek adabiyoti va folklori haqida qator tadqiqotlar yaratgan. Tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. I. V. Borolina 1953-yilda “Рассказы Абдуллы Каххара” (“Abdulla Qahhor hikoyalari”) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U dastlab Abdulla Qahhorning hikoyalarini rus tiliga tarjima qilib tajriba orttirgan. Olima nafaqat Abdulla Qahhor ijodi bilan qiziqqan, balki o'zbek va turk xalq og'zaki ijodi bilan ham shug'ullangan. U 1959 yilda o'zbek xalq maqollarini mavzulashtirilgan to'plamini rus tiliga tarjima qilgan[7.109]. Keyinchalik ushbu to'plam asosidagi maqollar ittifoqning turli markaziy nashriyotlaridagi umumiy to'plamlarga ham bir necha bor kiritilgan.

1961-yilda mazkur to'plam I. V. Borolina tashabbusi bilan “Пословицы и поговорки народов Востока” turkumi doirasida nashr etilgan.[7.109].

I. V. Borolina o'zbek maqollarini rus tiliga tarjima qilishda shunchaki so'zma-so'z, kalkalash usulidan foydalanib tarjima qilmagan, balki o'zbek maqollarining mohiyatini anglagan holda, asl mazmunini boricha yetkazishga uringan. Xususan, o'zbek xalq maqollaridagi ma'noviy va badiiy jozibasini, sharqona ruhiyatini saqlab qolgan holda rus tiliga mahorat bilan o'girishga harakat qilgan. Tarjima jarayonida maqollarning rus madaniyatidagi funksional va ma'noviy muqobillarini topishga harakat qilgan. Shu tariqa olim mazkur kitobda ikki xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashidagi umumiylik hamda milliy xususiyatlarini ko'rsatib bergan. To'plamdagi maqollar asosan o'zbek xalqining hayot tajribasi, mehnati, ahilligi, yurtga sadoqati, oila, axloq va donishmandlik haqidagi qarashlarini aks ettirgan mavzular bo'yicha tartiblangan bo'lib, unda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, ilm-ma'rifat, to'g'rilik, adovat, yalqovlik kabi 21 xil mavzudagi xalq donishmandligi aks etgan maqollar kiritilgan.

Xullas, o'zbek xalq maqollariga bo'lgan qiziqish, ularga og'zaki ijodning alohida janri sifatida qarash va to'plab nashr ettirish masalalar tarixi ancha olis davrlarga borib taqaladi. Shunday bo'lsada, xalq maqollarini alohida to'plam sifatida nashr ettirish va ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari asosan XIX asrning oxiri XX boshlaridan e'tiboran shakllandi. Xalq maqollarini to'plash va nashr ettirish borasida bir qancha kamchiliklari bo'lsa-da xorijlik olimlarning ham xizmati katta bo'ldi. XX asrga kelib o'zbek folklorshunosligi shakllangach, xalq maqollarini ilmiy o'rganish va nashr ettirish ishlariga alohida e'tibor qaratildi va o'zbek maqolshunosligi yanada takomillashdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Даль В. Напутное / Пословицы русского народа. I том. – М.: Художественная литература, 1984. – 284 с.;
2. Зарифов Х. Ўзбек совет фольклористикаси тарихидан. / Ўзбек совет фольклори масалалари. Тадқиқотлар. 1-китоб. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 220.
3. Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад, 1961. – С. 162.
4. Остроумов Н. П. Сарты. Этнографические материалы. Выпуск третий: Пословицы и загадки сартов. I том. – Ташкент: Типолитография Торгового дома «Ф. и Г. Бр. Каменские», 1895. – 184 с.
5. Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки. – М.: Наука, 1970. С.240.
6. Раҳматов Й. Мақол ва мақолшунослик тадқиқи. –Тошкент: Фирдавс-Шоҳ, 2022, - Б. 49.
7. Узбекские пословицы и поговорки. Составитель и перевод И.В.Боролина. – Ташкент: Уз.Гос.изд., 1959. – 109 с.